



## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **4941,7 mlrd.so'mni**, o'sish sur'ati – **110,4 %ni** tashkil etdi;
- Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi o'rtacha **6,0 mln.so'mga** yetdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **111,2 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **39,5 % ni** tashkil etib, aholi jon boshiga o'rtacha **2,4 mln.so'mga** to'g'ri keldi.
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **52,1 %**


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4941,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 2,4 martaga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 46,9 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash 9,5 % ga va qayta ishlash sanoati 7,5 % ga o'sishi hisoblandi.

### 2018 yil yanvar- dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda



## 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o`shishiga qo`shgan hissasi



### Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 46,9 % ga oshganligini kuzatish mumkin.



## Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).


Qayta ishlash sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3086,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 62,5 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,5 % ga oshganligi kuzatildi.

Hususan 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sishi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmoqda boshqa guruhlarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish 61,9 % ga, rezina va plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarish 38,5 % ga, farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarish 25,3 % ga, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 29,4 % ga, teri charm mahsulotlari ishlab chiqarish 28,5% ga hamda ichimliklar ishlab chiqarish sanoati 18,8 % ga oshganligi kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 4,6 % ni (2017 yil yanvar-dekabr oylarida - 4,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 6,1 % (3,6 %), o'rta-quyi texnologiyali - 9,1 % (9,8%) va quyi texnologiyali - 80,2 % (82,4 %) tashkil etdi.

### Yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %



**Yanvar- dekabr oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2017 yil	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil	2017 yil yanvar-dekabriga nisbatan, %
	<b>O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna</b>		
10,9		9,4	86,2
	<b>Paxta tolasi, ming tonna</b>		
56,4		45,4	80,6
	<b>Aroq – mig litr 100 % spirt</b>		
1320,0		1076,8	81,6
	<b>Paxta urug'l, ming tonna</b>		
90,3		71,7	79,4
	<b>Kalava ip, tonna</b>		
4783,9		4136,6	86,5
	<b>Sellyuloza, ming kg 90%</b>		
1517,5		778,6	51,3
	<b>Un, ming tonna</b>		
34,9		36,3	103,8
	<b>Kunjara, ming tonna</b>		
50,6		43,6	86,2



## **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1649,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 33,4 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining 9,5 % ga oshganligi kuzatildi.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,1 % ga va gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmining 9,6 % ga oshganligi kuzatildi.



### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<b>2017 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan</b>	<b>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</b>	<b>2018 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
15,1	<b>Elektroenergiya, mlrd kVt/s</b> 	15,8	104,6
156,0	<b>Issiqlik energiyasi, mln Gkal</b> 	182,6	117,1

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 195,0 mln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,9 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 2,4 martaga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan shahar ho'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 2,7 martaga oshganligi kuzatildi.



### Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2017 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil yanvar-dekabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	---	---	-------------------

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari, mln so'mda

9668,2



10087,8

104,3

Shahar ho'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln so'mda

614,5




2502,8

407,3

## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1954,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 11,2 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 39,5 % ni tashkil etdi.

### 2018 yilning yanvar- dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 40,1% dan 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 41,3 % ga oshishi kuzatilmoqda.

### Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 6,2 % ni (2017 yil yanvar-dekabr oylarida 6,4%) tashkil etdi.

### Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri 1571,6 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 31,8 % ulushini), Sirdaryo tumani 1068,8 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 21,6 % ulushini), Guliston shahri 740,7 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 15,0 % ulushini), Boyovut 305,6 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 6,2 % ulushini) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### 2018 yilning yanvar - dekabr oyida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi




Shu bilan birga eng kam ulush Sardoba tumani 130,6 mlrd so`m (2,6 %), Guliston tumani 117,9 mlrd so`m (2,4 %) va Xovos tumani 111,2 mlrd so`m (2,2 %) to'g'ri keladi.



## 2018 yilning yanvar- dekabr oylarida hududlarda axoli jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 6006,0 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi taxlil qilinganda, Shirin shahrida 84954,0 ming so'm, Sirdaryo tumanida 8570,8 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

### 2018 yilning yanvar - dekabr oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,




Tuman va shaharlar kesmida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti yuqoriligi quyidagi tumanlarda kuzatilgan, Mirzaobod tumanida 211,9%, Yangiyer shahrida 141,8 % hamda Guliston shahrida 121,3%. Shu bilan birga o'sish sura'ti kamayishi Guliston tumanida 88,2% va Boyovut tumanida 62,4% ni tashkil etgan.

## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2574,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 52,1 foizi) yoki 2017 yilning tegishli davriga nisbatan 115,5 foizni tashkil qilgan.

### 2018 yil yanvar-bridada hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi  
Sanoat statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23